

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KAMILOV OYBEK HAMIDJONOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MIGRATSIYA SOHASIDAGI
XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Kamilov Oybek Hamidjonovich

O‘zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligi.....3

Камилов Ойбек Хамиджонович

Международно-правовое сотрудничество Республики Узбекистан в сфере миграции.....25

Kamilov Oybek Khamidzhonovich

International legal cooperation of the Republic of Uzbekistan in in the field of migration.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KAMILOV OYBEK HAMIDJONOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MIGRATSIYA SOHASIDAGI
XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Yu1602.raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarxanova Dildora Sharipxanovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Isoqov Luqmonjon Xolboyevich
yuridik fanlar doktori, professor

Raximova Muattara Abdusattarovna
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 19-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1400-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil 3-iyundagi 7-raqamli reestr bayonnomasi)



S.S.Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

Sh.N.Raxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

D.N.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashtirish jarayonlari va xalqaro mehnat bozorining kengayishi migratsiya oqimlarining keskin ortishiga olib kelmoqda. Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) tomonidan 2024-yil uchun tayyorlangan Global migratsiya hisobotida qayd etilishicha, hozirgi kunda 280 milliondan ortiq kishi o'zi tug'ilgan mamlakatidan tashqari makonlarda, ya'ni boshqa davlatlarda yashamoqda, bu esa dunyo aholisining 3,6 foizini tashkil etadi. E'tiborlisi, bu ko'rsatkich 1990-yildagidan 128 millionga ko'pdir va 1970-yil bilan solishtirganda uch barobarga oshgan¹. O'zbekiston Respublikasida O'zStatning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-aprel holatiga mamlakat aholisining umumiy soni qariyb 37 million kishiga yetgan. 2024-yilning yanvar-mart oylarida ro'yxatga olingan ko'chib kelish migratsiya oqimi 56,2 ming kishini tashkil etgan. 2024-yilning 1-choragida ro'yxatga olingan ko'chib ketish migratsiyasi oqimi 58,2 ming kishini tashkil etdi – 32,5 ming nafar ayollar (55.9%) va 25,7 ming nafar erkaklar (44.1%). Bu 2023-yilning 1-choragidagi ko'chib ketish migratsiya oqimiga (54,6 ming kishi) nisbatan to'qqiz foizga o'sishni ko'rsatdi². Ushbu ko'rsatkichlar, davlatlar o'rtasida migratsiya sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishni talab qilmoqda. Xususan, tashkillashtirilgan qonuniy mehnat va ta'lim migratsiyasini rag'batlantirish, migratsiyaning tartibsiz, noqonuniy, yashirin ko'rinishlariga qarshi kurashish, fuqarolarning xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish borasidagi huquqiy himoyasini ta'minlash, shuningdek migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va migratsiya sohasidagi xalqaro hujjatlarda belgilangan normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda, migratsiya sohasida huquqiy hamkorlik mexanizmlarini raqamlashtirish, xalqaro mehnat bozorini tartibga solishda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish, migrantlarning huquqlarini ta'minlashda xalqaro tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish o'z navbatida mazkur muammo doirasida ilmiy tadqiqotlarning ustuvor amalga oshirilishini talab etmoqda. Shu boisdan davlatlar o'rtasida migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida mazkur tizimni takomillashtirish, qonuniy mehnat migratsiyasini rag'batlantirish bo'yicha davlatlararo kelishuvlarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, migratsiya sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiyasini kuchaytirish, xalqaro standartlar doirasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomalarning yanada samaraliroq tartibini ishlab chiqish, shuningdek migratsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida normativ-

¹ Elektron resurs: World Migration Report 2024 // https://www.iom.int/sites/g/files/tmzbd1486/files/appeals/iom-global-appeal-24_final.pdf

² Elektron resurs: MIGRATSIYA VAZIYATIGA OID HISOBOT 2024-YIL YANVAR-MART <https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbd12566/files/Publications/ozbekiston-migratsiya-vaziyatiga-oid-hisobot-2024-yil-yanvar-mart.pdf> Б.5

huquqiy bazani tizimlashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda migratsiya sohasida xalqaro hamkorlik tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida qator maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, qonuniy mehnat migratsiyasini rivojlantirish, noqonuniy migratsiyaning oldini olish, migrantlarning huquqlarini himoya qilish, migratsiya jarayonlarini boshqarish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, migratsiya organlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek migratsiya sohasidagi xalqaro shartnomalar normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida so'zlagan nutqida "...global muammolar, transmilliy tahdidlar, iqlim o'zgarishi va migratsiya masalalarini hal etishda xalqaro hamkorlik muhimdir"³ deb ta'kidladi. Darhaqiqat, bugungi kunda migratsiya qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, xalqaro mehnat bozorida O'zbekiston fuqarolarining raqobatbardoshligini oshirish, migrantlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek qonun ustuvorligini ta'minlash va migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikni yanada rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanib, bu sohani tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

BMTning Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida Konvensiyasi, Xalqaro migratsiya tashkilotining konstitutsiyasi, mintaqaviy xalqaro tashkilotlarining migratsiya sohasidagi mintaqaviy xalqaro-huquqiy hujjatlari va davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama xalqaro shartnomalar, O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 20-avgustdagi PF-5785-son "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida"gi Farmoni, 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2024 yil 17-oktyabrdagi PF-162-son "Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4008-

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бosh Assambleясининг 76-сессиясидаги нутқ // <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-birlashgan-millatlar-tashkiloti-bosh-assambleyasining-76-sessiyasidagi-nutqi>

son “O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy davlatlarning malakali mutaxassisleri tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 15-sentyabrdagi PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2024 yil 17 oktyabrdagi PQ-367-son “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2024 yil 4 apreldagi PF-59-son “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini ta‘minlashga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ushbu tadqiqot ishi bilan bog‘liq migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlik, mehnat migratsiyasi sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlik, migrantlarning huquqlarini himoya qilish, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash hamda migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha xalqaro hamkorlikning ayrim jihatlarini kompleks ravishda o‘rgangan mamlakatimiz olimlaridan – M.A.Raximova, J.A.Rasulov, L.X.Ishoqov, M.X.Raxmankulov, A.X.Saidov, S.A.Ishanxodjaye, O.T.Husanov, M.A.Tillabayev, R.R.Urinboyev, B.I.Egamberdiyev, Dj.X.Yuldashev, G.Yuldasheva, K.X.Abduraxmanov, Sh.G‘.Asadov, L.F.Isxakova, X.T.Mamatov, M.M.Mirakulov, A.R. Mo‘minov va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada ko‘rib chiqilgan.

Mamlakatimizda bevosita migratsiyani tartibga solish bilan bog‘liq masalalar, jumladan mehnat migratsiyasini boshqarish masalalari L.P.Maksakova, migrantlarning xalqaro-huquqiy maqomi K.Sh.Aripova, mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilish S.G‘.Ishanxodjaye, ichki migratsiya, xususan pasport tizimini takomillashtirish Dj.X.Yuldashev, migratsiya jarayonlarini tartibga solishning siyosiy jihatlarini D.N.Muydinov, migratsiya sohasidagi davlat boshqaruvining tashkiliy huquqiy jihatlarini L.X.Ishoqov, ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlariga doir faoliyatini takomillashtirish B.I.Egamberdiyev, xalqaro va milliy huquqiy me‘yorlar bo‘yicha chet elliklarning huquqiy holatini I.V.Samiyev, migratsiya qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik belgilash muammolarini A.A.Allanova, migratsiya sohasini huquqiy tartibga solish masalalarini S.Dj. Djoldasovalar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining olimlari – K.E.Troitskiy, M.K.Lubart, Y.B. Yakovleva, Ye.V.Kisileva, M.X.Isayeva, N.Zinchenko, Yu.A.Kolesnikov, A.L.Yastrebova, D.B.Berdnikova, L.S.Bisson, Y.V.Ivanova, V.Y.Ledenova, I.I.Lukashuk, A.X.Abashidze, V.A.Volox, A.S.Prudnikov, L.L.Ribakovskiy, A.V.Semenova, T.A.Titova, M.L.Tyurkin, T.Ya.Xabriyeva, I.A.Aleshkovskiy kabi olimlar ham o'z ilmiy ishlarida qator masalalarni o'rganishgan.

Xorijda Stephen Castles, Mark J. Miller, Hein de Haas, Ernst Georg Ravenshteyn, Asya Pisarevskaya, Nathan Levy, Peter Scholten, Joost Jansen, Catherine Wihtol de Wenden, Vincent Chetail, Peter J. Spiro, Alexander Aleinikoff, Caitlan M. Sussman, Ama Ruth Francis, Frederic Megret, Jaya Ramji-Nogales, Thomas Schindlmayr, Joseph H Carens, Emmerich de Vattel, Samuel Pufendorf kabi nufuzli olimlar migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solishga oid nazariy-huquqiy muammoni tegishli davlatlarning voqeligidan kelib chiqib o'rgangan bo'lsalar, boshqalari mazkur muammoni o'z tadqiqotlarining u yoki bu jihatini yoritish jarayonida ko'rib chiqqanlar. Shuningdek, ayrim olimlar bevosita xalqaro maydonda migratsiya jarayonlarini tartibga solishga alohida e'tibor qaratishgan.

Xalqaro migratsiya huquqi nazariyasida mazkur muammoning ilmiy o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatadiki, ilmiy tadqiqotlarda inson huquqlari (migratsiya kontekstida) sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMT) bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalarning huquqiy jihatlari, xalqaro migratsiya standartlarining shakllanishi va rivojlanishi kabi masalalar o'rganilgan.

Mazkur tadqiqotlarning tahlili migratsiya sohasidagi xalqaro standartlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga implementatsiya qilishning nazariy va amaliy masalalari kompleks o'rganilmaganligini ko'rsatdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy ishlar rejasidagi "O'zbekiston Respublikasining migratsiya sohasida davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, ratifikatsiya qilingan konvensiyalar normalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, xalqaro shartnomalar ijrosi monitoringini olib borish" doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligiga doir masalalarni o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularning yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash;

migratsiyani tasniflashning zamonaviy konsepsiyalarini o'rganish;

migratsiyaning tartibsiz, noqonuniy, yashirin ko‘rinishlari qarshi kurashning huquqiy jihatlari va xalqaro yondashuvlarini tahlil etish;

universal darajada migratsiya jarayonlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq qilish;

mintaqaviy tashkilotlar doirasida migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning xususiyatlarini yoritish, tadqiq etish;

Yevropa Ittifoqi doirasida migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning xususiyatlarini o‘rganish;

rivojlangan davlatlarning migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorligining asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqish;

mamlakatimizning migratsiya sohasida mintaqaviy tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligini rivojlantirish masalalarini tahlil qilish;

amaldagi migratsiya sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligi bilan bog‘liq xalqaro–huquqiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligi bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me‘yorlar, ilmiy-konseptual yondashuvlar, qarashlar, tamoyillar, modellar, shakl va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: dissertatsiyada analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, empirik material va statistik ma‘lumotlar tahlili, sotsiologik so‘rov, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

migratsiya jarayonlarida davlatlar o‘rtasida o‘zaro ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi va Migratsiya agentligining vakillik instituti joriy qilish lozimligi asoslantirilgan;

mamlakatda migratsiya siyosatini amalga oshirishda va bu sohani raqamlashtirish va davlat boshqaruvini tartibga solishda iyerarxik tarzda tashkillashtirilgan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish kerakligi asoslab berildi;

migratsiya harakatining barcha shakllari, turlari va yo‘nalishlarini, uning kelib chiqish aspektlari, omillari, sabablari va shart–sharoitlarini tizimli o‘rganish bo‘yicha vazifalarni ta‘minlash maqsadida ilmiy-akademik organ yoki boshqa aloqador vazirliklar, idoralar yoki tashkilotlar tarkibida migratsiya sohasida ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etish lozimligi asoslantirildi;

davlatlar o‘rtasida hamkorlikni amalga oshirishda xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishi sifatida «migratsiya diplomatiyasi» asoslari va modellarini kompleks ilmiy–tadqiq etish asosida ishlab chiqish kerakligi asoslantirildi;

migrantlar uchun “Xulq-atvor kodeksi” va “Tashrif buyirilgan mamlakat haqida atlas” loyihalarini ishlab chiqish kerakligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning nazariy asoslarini o‘rganish natijasida “migratsiya”, “migrant” kabi tushunchalarning zamonaviy talqinlari va migratsiya jarayonlarini tasniflovchi konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi;

1990 yilda qabul qilingan BMTning "Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a‘zolarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida"gi Konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining 1949 yildagi “Mehnatkash - migrantlar to‘g‘risida”gi 97-sonli Konvensiyasi, 1962 yildagi “Fuqarolar va mamlakatdagi chet elliklar hamda fuqaroligi yo‘q shaxslarni ijtimoiy ta‘minlash sohasida teng huquqliligi to‘g‘risida"gi 118-sonli Konvensiyasi va 1975 yildagi «Migratsiya sohasidagi suiste‘moliklar va mehnatkash-migrantlarga teng imkoniyat va murojaatlarda tenglikni ta‘minlash to‘g‘risida»gi 143-sonli Konvensiyasiga qo‘shilish zarurati asoslantirildi;

migrantlar maqomining xalqaro-huquqiy asoslarini shakllantirishga doir yondashuvlar, migratsiya sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish va migratsiyaning tartibsiz, noqonuniy, yashirin ko‘rinishlarini oldini olish choralari, Yevropa Ittifoqi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari umumlashtirildi;

mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston fuqarolarini himoya qilish bo‘yicha aniq takliflar asoslantirilgan;

mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, migrantlarning huquqlarini himoya qilish, xavfsiz migratsiyani ta‘minlash bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish mexanizmlari ishlab chiqilgan;

xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan migrantlar huquqlarini himoya qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari surildi;

O‘zbekiston Respublikasining migratsiya sohasida universal, mintaqaviy va ikki tomonlama darajadagi xalqaro-huquqiy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari va takomillashtirish istiqbollari tahlil qilindi, shuningdek bu boradagi xalqaro-huquqiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar ilgari surildi;

migratsiya faoliyatini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini yanada samarali bo‘lishi maqsadida O‘zbekiston Respublikasi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga qo‘shimcha, o‘zgartirishlar ishlab chiqilishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ilg‘or xorijiy tajribalar, huquqni qo‘llash amaliyoti, rasmiy manbalardan olingan nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar, sotsiologik so‘rov hamda empirik materiallarga asoslangan bo‘lib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif hamda tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan migratsiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishda, qonun ijodkorligida, migratsiyaga oid qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda, “Xalqaro huquq”, “Migratsiya huquqi” va “Inson huquqlari” kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tavsiya va xulosalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularning joriy etilishi migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorlikni mustahkamlash, mazkur sohada inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, davlatning migratsiya strategiyasini amalga oshirishdagi bir qator muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligiga doir olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

migratsiya jarayonlarida davlatlar o‘rtasida o‘zaro ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasining tegishli hududlarida Migratsiya agentligining vakillik instituti joriy qilishga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–149-son qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi”, yoshlar siyosati va ma‘naviyat masalalari departamentining 2024-yil 18-noyabrdagi 30/1-1126-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifni amalga oshirilishi, xorijiy davlatlardagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi;

mamlakatda migratsiya siyosatini amalga oshirishda va bu sohani raqamlashtirish va davlat boshqaruvini tartibga solishda iyerarxik tarzda tashkillashtirilgan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2024-2025-yillarda migratsiya sohasidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi»”ning 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahalla yettiligi”, yoshlar siyosati va ma‘naviyat masalalari departamentining 2024 yil 18-noyabrdagi 30/1-1126-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif mamlakatda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosatini amalga oshirishda va fuqarolarning huquqlarini har tomonlama himoya qilishda davlat organlarining faoliyatining ochiqligini ko‘rsatishga xizmat qiladi;

migratsiya harakatining barcha shakllari, turlari va yo‘nalishlarini, uning kelib chiqish aspektlari, omillari, sabablari va shart–sharoitlarini tizimli o‘rganish bo‘yicha vazifalarni ta‘minlash maqsadida ilmiy-akademik organ yoki boshqa aloqador vazirliklar, idoralar yoki tashkilotlar tarkibida migratsiya sohasida ilmiy-

tadqiqot institutini tashkil etishga oid taklifi “O‘zbekiston Respublikasining 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan migratsiya siyosati Strategiyasi” loyihasining VI bandi “Migratsiya siyosatining yo‘nalishlari”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 13-noyabrdagi 33-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif mamlakatda va jahonda migratsiya jarayonlarini amalga oshirish siyosatini belgilashda unda inson huquqlarini ta‘minlashda, zamonaviy texnologiyalarning migratsiya jarayonlariga ta‘sirini o‘rganish hamda prognoz qilishda ilmiy yondashuvini yaratish maqsadida fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga xizmat qiladi;

davlatlar o‘rtasida hamkorlikni amalga oshirishda xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishi sifatida «migratsiya diplomatiyasi» asoslarini kompleks ilmiy-tadqiq etish asosida ishlab chiqishga oid taklifi “O‘zbekiston Respublikasining 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan migratsiya siyosati Strategiyasi” loyihasida ko‘zda tutilgan “O‘zbekiston Respublikasining 2025-2027-yillar davomida migratsiya siyosati Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi”ning “Migratsiya salohiyatidan foydalanishning barqaror tizimini shakllantirish” deb nomlangan II bobini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 13-noyabrdagi 33-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif davlatlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi;

migrantlar uchun “Xulq-atvor kodeksi” va “Tashrif buyirganlar uchun mamlakat haqida atlas” loyihalarini ishlab chiqishga oid taklifi “O‘zbekiston Respublikasining 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan migratsiya siyosati Strategiyasi” loyihasi doirasida ko‘zda tutilgan “O‘zbekiston Respublikasining 2025-2027-yillar davomida migratsiya siyosati Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi”ning “Migrantlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish hamda xavfsiz va tartibli migratsiya uchun axborot ko‘magi” deb nomlangan VI bobini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2024-yil 13-noyabrdagi 33-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif fuqarolar va mamlakatga tashrif buyiruvchi barcha shaxslarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 8 ta, jumladan, dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda 6 ta va 2 ta xorijiy jurnalda maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘qqiz paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning oʻrganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning eʼlon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlik asoslarining nazariy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobida migratsiya tushunchasi, aholining koʻchib yurishi, xalqaro migratsiya huquqining shakllanish tarixiy bosqichlari va bu jarayonlarning huquqiy asoslari, migratsiya jarayonlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish masalalari, migratsiyani tasniflashning zamonaviy konsepsiyalari hamda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashning huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

Xususan, *“Migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning ilmiy-nazariy asoslari”* deb nomlangan birinchi paragrafda migratsiya muammosi jahon miqyosida jadal surʼatlarda kun tartibiga chiqib, uning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari boʻyicha qator ilmiy va amaliy muhokamalarga sabab boʻlayotganligi koʻrsatib berilgan.

Dissertant tomonidan migratsiya tushunchasining ilmiy-huquqiy taʼrifini yanada aniqlashtirish maqsadida, Angliyalik olim E.G.Ravenshteyn tomonidan ishlab chiqilgan *“migratsiyaning oʻn bir qonuni”* asos qilib olingan va migratsiya jarayonlarining asosiy xususiyatlari ochib berilgan. Xalqaro migratsiyaning huquqiy asoslari tahlil qilinar ekan, insonlarning harakatlanish erkinligi, yashash joyini tanlash kabi huquqlarining xalqaro huquqiy asoslari koʻrib chiqilgan.

Muallif tomonidan tarixiy-huquqiy jihatdan migratsiya huquqi ilk bor Fransisko de Vitoriya va keyinchalik Volter va Kantning falsafiy-huquqiy asarlarida nazariy jihatdan asoslantirilganligi taʼkidlanadi. Kant tomonidan *“dunyo fuqarosi”* tushunchasining ilgari surilishi va *“doimiy mehmon boʻlish huquqi”* kontsepsiyasi hozirgi kunda ham global migratsiya masalalariga nazariy asos boʻlib xizmat qilayotganligi koʻrsatib berilgan.

Dissertant *“migrant”* va *“mehnat migranti”* tushunchalari borasida xalqaro huquqiy hujjatlardagi taʼriflarni tahlil qilib, mazkur tushunchalar oʻrtasidagi farqli jihatlarni yoritib bergan. BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti va Xalqaro migratsiya tashkilotining rasmiy hujjatlarida berilgan taʼriflar asosida kompleks yondashuv zarurligi koʻrsatilgan.

Xalqaro migratsiya huquqining shakllanish tarixi va rivojlanish jarayonlari besh davrga boʻlinib tahlil qilingan:

1. Sanoatlashishgacha bo‘lgan davr (1800 yilgacha): migratsiya asosan qullar savdosi, urushlar va mustamlakachilik jarayonlari orqali amalga oshgan. Dengiz orqali savdo ham ahamiyatga ega bo‘lgan;

2. Ommaviy migratsiya davri (1850–1914): Yevropadan Amerikaga millionlab insonlarning ixtiyoriy ravishda ko‘chishi. Migratsiya bilan bog‘liq transport harajatlari arzonlashgan, AQShda aholi o‘shining 40% migratsiya evaziga yuzaga kelgan.

3. Jahon urushlari davri (1914–1945): Urush va ta‘qiblar tufayli majburiy migratsiya kuchaygan. Yevropada 2–2,5 million qochqin paydo bo‘lgan. Millatchilik siyosati migratsiyani avj oldirgan;

4. Urushdan keyingi davr (1945–1973): Yirik davlatlar iqtisodiyoti tiklanishi negizida ishchi kuchiga talab oshgan. Dekolonizatsiya tufayli yangi migratsiya oqimlari paydo bo‘lgan;

5. Globalizatsiya davri (1973–hozirgacha): neft inqirozidan so‘ng migratsiya qayta shakllangan. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi asosiy migratsiya manbaiga aylanishgan. Migratsiya oqimlarida etnik va diniy xilma-xillik ortib borgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Migratsiyani tasniflashning zamonaviy konsepsiyalari”* deb nomlanib unda migratsiya turlarini xalqaro huquq va milliy qonunchilik doirasida tasniflanishi, migratsiyaning iqtisodiy, ijtimoiy, geografik va boshqa omillari asosida tahlili aks ettirilgan.

Tadqiqotchi migratsiyani bir necha mezonlarga ko‘ra tasniflagan. Asosiy mezon sifatida chegaradan o‘tish fakti hisobga olinsa, migratsiya ichki (davlat ichidagi) va tashqi (xalqaro yoki davlatlararo) migratsiyaga bo‘linadi. Shuningdek, migrantning yashash yoki vaqtincha bo‘lish joyidagi davomiyligi, migratsiyaning davriyligi va muntazamligiga qarab uni quyidagi turlarga ajratish mumkinligi ko‘rsatilgan: doimiy va vaqtinchalik migratsiya (shu jumladan uzoq muddatli va qisqa muddatli).

Migratsiya jarayonlarini ixtiyoriylik belgilariga ko‘ra: ixtiyoriy migratsiya va majburiy migratsiya kabi turlarga ajratilgan. Qolaversa, migratsiyaning tashkiliy xususiyatiga ko‘ra tashkillashtirgan va mustaqil migratsiya turlariga bo‘lingan.

Dissertant bugungi kunda migratsiyaning nisbatan yangi ko‘rinishlari sifatida ilmiy hamjamiyatda keng muhokama qilib kelinayotgan “qaytish migratsiyasi”, “intellektual migratsiya” va “o‘rnini bosuvchi migratsiya” kabi turlarni xalqaro huquqiy jihatdan tahlil qilgan va bu sohada xalqaro-huquqiy hujjatlarda ushbu tushunchalarni yanada aniqlashtirish zarurligini ko‘rsatib o‘tgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi *“Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashning huquqiy jihatlari va xalqaro yondashuvlari”* deb nomlanib, unda noqonuniy migratsiya tushunchasi, uning oldini olish va qarshi kurash borasidagi xalqaro huquqiy normalar, jumladan BMTning “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi” konvensiyasi va uning protokollari tahlil qilingan.

BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi (2000) va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning 143-sonli Konvensiyasi dissertant

tomonidan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish va migrantlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan asosiy huquqiy hujjatlar sifatida ta'kidlangan. Bu hujjatlar, shuningdek, xavfsiz migratsiyani ta'minlash va inson huquqlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda noqonuniy migratsiya muammosi dissertant tomonidan tahlil qilingan va bu borada ayniqsa viloyatlarda ayrim rivojlangan davlatlarga qarata yo'naltirilgan noqonuniy migratsiya kanallari kuzatilgani qayd etilgan. Transmilniy jinoyatchilik, odam savdosi va xavfsizlikka tahdidlarining o'sishi, o'z navbatida, migrantlarning huquqlarini buzishi va ularni qiyin vaziyatlarga olib kelishi hamda axloqiy va huquqiy javobgarlikni kuchaytiradi. Bu muammo milliy va xalqaro darajada jiddiy yechimlarni talab qilmoqda.

Muallif tomonidan xalqaro huquqda migratsiyani tartibga solish va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan. BMTning 1990 yilda qabul qilingan Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risida Konvensiyasi migrantlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Dissertant tomonidan O'zbekistonda milliy qonunchilikni takomillashtirish va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini mustahkamlashga oid tavsiyalar berilgan. Ayni damda, migratsiyaning tartibsiz va yashirin ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan noqonuniy migratsiya bilan bog'liq bir qator tushunchalarni ishlab chiqish zaruriyatiga urg'u berilgan va bu borada atamaviy namunalar keltirilgan:

noqonuniy migratsiya - chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishlari, bo'lishlari hamda tranzit o'tishlarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda O'zbekiston Respublikasiga kirishi va bo'lishi, shuningdek O'zbekiston hududidan tranzit o'tish;

noqonuniy migratsiyani tashkil etish - chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududiga noqonuniy kirishini, ularning noqonuniy bo'lishini, O'zbekiston Respublikasi hududida yashashini, O'zbekiston Respublikasi hududidan noqonuniy tranzit o'tishini tashkil etish faoliyati;

noqonuniy mehnat migratsiyasi – fuqaroning xorijiy davlatga kirishi va o'zi turgan davlatning qonunchiligini buzgan holda mehnat faoliyatini amalga oshirishi, shuningdek chet el fuqarosining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi hamda O'zbekiston Respublikasiga xorijiy ishchi kuchini jalb etish va undan foydalanish tartibi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda mehnat faoliyatini amalga oshirishi.

Shu bilan birga, xalqaro va milliy qonunchilikni muvofiqlashtirish orqali migratsiya jarayonlarini tartibga solish va undagi kamchiliklarni bartaraf etish mumkinligi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning universal va mintaqaviy darajadagi xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida universal darajada migratsiya jarayonlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish tizimining rivojlanishi, Yevropa Ittifoqi va MDH doirasida migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning xususiyatlari aks ettirilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Universal darajada migratsiya jarayonlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishi”* deb nomlanib, unda xalqaro migratsiya huquqining shakllantiruvchi asosiy manbalari, ularning turlari va o‘zaro munosabatlari, xalqaro migratsiya huquqining asosiy subyektlari va ularning faoliyati ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotchi xalqaro migratsiya huquqi manbalari BMT Xalqaro sudi Nizomining 38-moddasida sanab o‘tilgan asosiy, ikkinchi darajali va yordamchi manbalarga asoslanishini ta’kidlaydi. Bunda xalqaro migratsiya huquqini tashkil etuvchi universal va mintaqaviy hujjatlar, shuningdek, maxsus manbalar tahlil qilingan.

Xalqaro migratsiya huquqining umumiy manbalari qatoriga quyidagilar kiritilgan: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966 yil), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966 yil), Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi konvensiya (1965 yil) va boshqalar.

Dissertant tomonidan xalqaro migratsiya huquqining maxsus manbalari ham tahlil qilinib, ular qatoriga *“Barcha mehnatchi-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”*gi xalqaro konvensiya (1990-yil), Xalqaro mehnat tashkilotining 1949-yildagi *“Mehnat migrantlari huquqlari to‘g‘risida”*gi 97-sonli Konvensiyasi va 1975 yildagi *«Migratsiya sohasidagi suiste'moliklar va mehnatkash-migrantlarga teng imkoniyat va murojaatlarda tenglikni ta'minlash to‘g‘risida»*gi 143-sonli Konvensiyasi kiritilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Yevropa Ittifoqi doirasida migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning xususiyatlari”* deb nomlanib, unda Yevropa davlatlarida ishchilar harakatlanish erkinligi masalasining huquqiy tartibga solinishi, Shengen makoni va Yevropa Ittifoqi migratsiya qonunchiligi tahlil qilingan.

Dissertant Yevropa Ittifoqida migratsiyani tartibga solish tizimining shakllanish bosqichlarini tavsiflab bergan. Tahlillar ko‘rsatishicha, tizimning shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya’ni 50-80-yillarda asosiy ustuvor yo‘nalish Yevropa Ittifoqi fuqarolari uchun harakatlanish erkinligini ta'minlash va kirish-chiqish tartibini soddalashtirish bo‘lgan.

1990-yillardan boshlab esa ustuvor yo‘nalishlar o‘zgardi. Ular chegara nazoratini kuchaytirish, Yevropa Ittifoqi davlatlari hududiga chet el fuqarolarining

kirishini cheklash, tashkil etilgan mehnat va tadbirkorlik migratsiyasini rag'batlantirish, qochoq maqomini berish, yashash joyini tanlash kabi masalalarga qaratildi.

2000-yillar o'rtalarida esa Yevropa Ittifoqida migratsiya hujjatlarini qisman kodifikatsiya qilish boshlandi. Masalan, Yevropa Ittifoqi fuqarolari va ularning oila a'zolarining harakatlanish va yashash joyini tanlash huquqi to'g'risidagi 2004/38/EC-sonli Direktiva qabul qilindi.

Shengen huquqi doirasida migratsiya munosabatlarini tartibga solish yanada murakkablashgan bo'lib, tadqiqotchi bu tizimning asosiy tamoyillari va tartibotlarini tahlil qilgan. Dissertant Yevropa Ittifoqi tajribasini qo'llashda migratsiya jarayonlarini tartibga solish siyosatini demografik, iqtisodiy va xavfsizlik omillariga asoslantirish kerakligini ta'kidlab o'tgan.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi *“MDH doirasida migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikning xususiyatlari”* deb nomlanib, unda MDH tashkilotining migratsiya sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazasi, migratsiya organlarining huquqiy maqomi, ularning faoliyat yo'nalishlari, MDH doirasida ta'sis etilgan organ va muassasalarning vakolatlari hamda faoliyat yuritish asoslari ochib berilgan.

Tadqiqotchi MDH doirasida migratsiya munosabatlarini tartibga solishning dastlabki yo'nalishlaridan biri MDH davlatlari hududida fuqarolarning harakatlanish erkinligini ta'minlash bo'lganligini ko'rsatib o'tadi. Dissertant tomonidan MDH davlatlarida migratsiyaning rivojlanish dinamikasi va asosiy yo'nalishlari tahlil qilinib, bu sohadagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari fuqarolar harakatlanish erkinligini ta'minlash, qochqinlar va majburiy ko'chib keluvchilarni himoya qilish, mehnat migratsiyasini tartibga solish, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish kabilardan iboratligini ko'rsatib bergan.

1994-yil 15-aprelda qabul qilingan Mehnat migratsiyasi va mehnat migrantlarining ijtimoiy himoyasi sohasida hamkorlik to'g'risidagi kelishuv ushbu sohadagi asosiy huquqiy hujjat bo'lib, u mehnat migrantlarining asosiy huquqlari va davlatlarning ushbu sohadagi hamkorlik yo'nalishlarini belgilab berganini aniqlagan. Shuningdek, 1998-yil 6-martda MDH Hukumat rahbarlari kengashi tomonidan *“MDH davlatlari noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasida hamkorlik to'g'risida”*gi kelishuv imzolanganligi ham tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish masalalari”** deb nomlangan uchinchi bobida O'zbekiston Respublikasining migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorligining asosiy yo'nalishlari, mintaqaviy tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligini rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, migratsiya sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafi *“O'zbekistonning migratsiya sohasida xalqaro-huquqiy hamkorligining asosiy yo'nalishlari”* deb nomlanib, unda O'zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi davlat siyosati, milliy

qonunchilik asoslari, migratsiya jarayonlari statistikasi, xalqaro-huquqiy hamkorlikni rivojlantirish sohasidagi asosiy institutlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari, xorij tajribalaridan foydalanish masalalari aks ettirilgan.

Dissertant O‘zbekistonda migratsiya sohasidagi asosiy statistik ko‘rsatkichlar va tendensiyalarni ko‘rib chiqib, ushbu sohadagi asosiy muammolar va ularni hal qilishda xalqaro hamkorlikning o‘rni va ahamiyatini tahlil qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligi va Kamba‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirayotgan chora-tadbirlari ham tadqiqotda o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston tomonidan migratsiya sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga konsullik-huquqiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar, xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tadbirlari ham batafsil yoritilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi *“O‘zbekistonning migratsiya sohasida mintaqaviy tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorligini rivojlantirish masalalari”* deb nomlanib, unda mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Yevropa Ittifoqi doirasida migratsiyani tartibga solish mexanizmlari, O‘zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalari, kelgusida bu aloqalarni rivojlantirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Tadqiqotchi dunyo mamlakatlarining migratsiya siyosatini uch asosiy darajaga ajratgan: milliy daraja, mintaqaviy daraja va xalqaro daraja. Bunda xalqaro daraja o‘z navbatida universal, mintaqaviy va ikki tomonlama darajalarga bo‘linishi mumkinligini ta’kidlagan.

Dissertant O‘zbekistonning MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorligining huquqiy asoslarini tahlil qilgan. Shuningdek, “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari”, “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi”, “Markaziy Osiyo – Germaniya”, “Markaziy Osiyo— AQSh” va boshqa xalqaro formatdagi sammit va hamkorlik kengashlarida migratsiyaga bag‘ishlangan kun tartibini bosqichma-bosqich shakllantirish lozimligi ko‘rsatib berilgan va mazkur sohaga oid qarash va ilmiy-nazariy yondashuvlarini “migratsion diplomatiya modellari” orqali ifoda etgan.

O‘zbekistonning migratsiya sohasida xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama hamkorligi doirasidagi asosiy yo‘nalishlari, jumladan, tashkiliy mehnat migratsiyasi, ta’lim migratsiyasi, axborot almashinuvi kabi sohalaridagi hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalari ham tadqiqotda o‘z aksini topgan.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi *“O‘zbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini takomillashtirish istiqbollari”* deb nomlanib, unda migratsiya qonunchiligini takomillashtirish, migratsiya kodeksini qabul qilish, ta’lim migratsiyasi sohasida qonunchilikni

yanada rivojlantirish, migratsiya agentligi va konsullik muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha istiqbolli vazifalar aks ettirilgan.

Dissertant O'zbekistonda migratsiya qonunchiligi sohasidagi mavjud muammolarni tahlil qilib, normativ-huquqiy makonda bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatib bergan. Bu esa normativ maqomni tizimlashtirish zaruratini keltirib chiqargan.

Dissertant migratsiya qonunchiligining kelajakdagi rivojlanishi uchun O'zbekiston Respublikasining Migratsiya kodeksini qabul qilish taklifi ilgari surilgan. Ushbu kodeks migratsiya sohasida davlat siyosati maqsad va vazifalarini, tegishli organlarning vakolatlarini, noqonuniy migratsiya xavflarini minimallashtirish choralarini, tashkil etilgan migratsiyaga yordam berish choralarini va boshqalarni aniq belgilab beradi.

Shuningdek, talaba migratsiyasi yoki ta'lim migratsiyasi masalalarini ham tartibga solish kerakligi ta'kidlanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadiga "Ta'lim konsalting kompaniyalari va muassasalari to'g'risida"gi Nizom loyihasini ishlab chiqish taklif etilgan.

